

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha olib borilgan  
tadqiqotlarni diaxron aspektida o‘rganilishi**

***Axmedov Nu’monjon Muhammedumarovich***

*O‘zbekiston Respublikasi*

*Bank-moliya akademiyasi*

*Soliqlar va soliqqa tortish yo‘nalishi Magistraturasi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Kameral soliq tekshiruvining maqsadi soliq to‘lovchiga soliq organlari tomonidan kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq hisobotlarida aniqlangan tafovutlarni mustaqil ravishda bartaraf etish huquqini berishdan iboratdir. Kameral soliq tekshiruvi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va shu yo‘nalishda bildirilgan fikrlar o‘rganildi, shuningdek nazariy asoslar tahlil etilib takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** kameral soliq tekshiruvi, samaradorlik, kameral nazorati, hisob-axborot ta’minoti tizimi, budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg ‘armalar.

Kameral soliq tekshiruvi muhim ahamiyatga molik bo‘lgan keng doiradagi tekshiruv turi hisoblanganligi sababli mazkur mavzu doirasida yetarlicha mahalliy va xorijiy olim hamda tadqiqotchilarning ishlari, fikrlari va xulosalari, kitoblar, maqolalar, dissertatsiya va boshqa ko‘rinishdagi adabiyotlar mavjud. Ushbu adabiyotlarni chuqur o‘rgangan holdagina kameral soliq tekshiruvi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ilmiy ishni yanada kengroq yoritilishiga xizmat qiladi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq to‘lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud bo‘lgan boshqa hujjatlar hamda ma’lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o‘tkaziladi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 138-moddasi.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Kameral soliq tekshiruvining maqsadi soliq to‘lovchiga soliq organlari tomonidan kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq hisobotlarida aniqlangan tafovutlarni mustaqil ravishda bartaraf etish huquqini berishdan iboratdir.

Qирғизистон Республикасининг Б.Осмонов номидаги Жалол-Обод давлат университети о‘қитувчилари Н.К.Мусакулов ва П.М.Абдукадировларнинг “Солиқ ва солиқ солиш” о‘кув методик қо‘лланмасида “***Kameral soliq tekshiruvi*** (Qирғизистон Республикаси Солиқ кодексining 107-моддаси) солиқ xizmati органлари joylashgan joyda hisobot hujjatlari va солиқ xizmati tomonidan boshqa manbalardan olingan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Agar солиқ summasini kam baholash yoki oshirib ko‘rsatish faktlari, shuningdek солиқ hisobotini to‘ldirishda yo‘l qo‘yilgan boshqa xatolar aniqlansa, солиқ organi солиқ to‘lovchini aniqlangan xatolar to‘g‘risida 15 kalendar kun ichida bartaraf etish talabi bilan yozma ravishda xabardor qiladi. Qonun hujjatlarida солиқ organlarining kameral солиқ tekshiruvlari natijalari to‘g‘risida dalolatnoma tuzish majburiyati belgilanmagan. Kameral солиқ tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi Qирғизистон Республикаси Soliqlar va yig‘imlar qo‘mitasining 2017-yil 1-dekabrdagi 123-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan”<sup>2</sup> – deb qayd etilgan.

L.I.Kofler va Yu.P.Kashirinalar ham kameral солиқ tekshiruvining maqsadi haqida fikr bildirib, u “солиқ to‘lovchi tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliqqa oid huquqbazarliklarning oldini olish, aniqlangan huquqbazarliklar bo‘yicha soliqlarning to‘lanmagan (to‘liq to‘lanmagan) summalarini undirish, soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun aybdorlarni javobgarlikka tortish, shuningdek, солиқ to‘lovchilarni joylarda солиқ tekshiruvlari uchun oqilona tanlashni ta’minlash uchun zarur ma’lumotlarni tayyorlash”<sup>3</sup> dan iborat bo‘ladi deb hisoblaydi.

Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy-uslubiy va ilmiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga tegishli farmon va qarorlari,

<sup>2</sup> Qирғизистон Республикасининг Б.Осмонов номидаги Жалол-Обод давлат университети о‘қитувчилари Н.К.Мусакулов ва П.М.Абдукадировларнинг “Солиқ ва солиқ солиш” о‘кув методик қо‘лланмаси.

<sup>3</sup> Kofler L.I., Kashirina Yu.P. “Налоговые проверки: виды, порядок проведения и оформления результатов. Территория науки. 2017. №1.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tizimini rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalari, Vazirlik va idoralar tomonidan chiqarilayotgan Nizom, qo'shma qaror va loyihibalar, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlariga bag'ishlangan mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ushbu sohadagi ilmiy maqolalari, maxsus yo'riqnomalar va ko'rsatmalar tashkil etadi.

Anthony B.Kim, James M.Roberts, Terry Miller, O.A.Axmadeva, O.V.Lyubova, O.N.Belenov, T.Yu.Smolyaninova, Yu.V.Shurckova, M.I.Berkovich, N.I.Antipina, A.M.Fridman, V.M.Semenov, N.V.Vasilenkova, O.A.Egorova, S.N. Kuznetsova, V.P.Kuznesov, E.B.Lenchuk<sup>4</sup> kabi xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.A.Toshmatov, S.S.G'ulomov, I.Niyazmetov, A.Usanov, S.Giyasov, U.V.Gafurov, Y.Abdullaev, I.A.Bakieva, A.Jo'raev, Sh.X.Baeva, B.Y.Xodiev, G.K.Yaxshiboev, R.Yuldashev, A.U.Burxanov, T.Z.Teshaboev, B.T.Salimov, B.B.Salimov, E.Gadoev, B.Musaev, ham mazkur muammoga bog'liq mavzularda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.<sup>5</sup>

Magistrlik dissertatsiyasini yozishda soliq tekshiruvlarining muhimi turi bo'lgan kameral nazorati bo'yicha qonunchilik va olimlar tomonidan olib borilgan

<sup>4</sup> Anthony B.Kim, James M.Roberts, Terry Miller 2020 index of Economic Freedom. The Heritage Foundation. 2020 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002 (202) 546-4400 | heritage.org. United States of America. ISBN: 978-0-89195-300-5.

<sup>5</sup> Usanov A., Jalilov R. Puti sovershenstvovaniya nalogovogo monitoringa v usloviyakh mirovogo finansovoekonomicheskogo krizisa. A.Usanov va R.Djalilovlar tomonidan o'tkazilgan "O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida Kameral nazoratning tutgan o'rni" M.: Ekonomika i finansi. 2010 №4 (172). Abdullaev E., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. - T.: Mehnat, 2010 yil 349 bet.; Abdullaev E., Yuldashev Sh. Maliy biznesi predprinimatelstvo. - T.: Iqtisod-moliya, 208-339 bet.; Bakieva I.A. O'zbekiston engil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Dissertasiya... iqt. fan. nomzodi. - T., 2012 y.; G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: Sharq, 2002.-183b.; Baeva Sh.x. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiysi. - T.: IQTISODIYOT, 2015.-120b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. - Toshkent: Moliya, 2016 yil. 208 b.; xodiev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Dissertasiya...iqt. fan.doktori. - T.: TDIU. 2000 yil 338 bet.; Yaxshiboev G.K. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash masalalari. Nomz.diss. - T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, 2005.; Yuldashev R. Kichik sanoat zonalari iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. "xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №4, 2017 y. avgust.; Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya.-T.:Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. -160 b. // Monografiya - Salimov B.T., Salimov B.B. "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish". - T.: Iqtisodiyot, 2020.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

ilmiy izlanishlar asosida o‘rganishlar o‘tkazildi.

Shu bois bir qancha yirik olimlar tomonidan bildirilgan fikrlaridan iqtiboslar keltirib o‘tmoqchiman: I.A.Mayburovning tomonidan, “**kameral soliq tekshiruvining maqsadi** soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliq qonunbuzarliklarini aniqlash va oldini olish, shuningdek, ularning samaradorligini ta’minlash uchun zarur ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlashdir” deb fikr bildirilgan<sup>6</sup>.

Bundan tashqari yirik olim N.A.Poponova “**Kameral soliq tekshiruvi** - bu soliq deklaratsiyasi va soliq to‘lovchi soliq idorasiga mustaqil ravishda topshirgan hujjatlar, shuningdek soliq organida mavjud bo‘lgan hujjatlar asosida soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish”<sup>7</sup> - deb o‘zining ta’rifini keltirganligi aytish mumkin.

O‘zbekistonlik olim va ekspertlarimizdan ham Kameral nazoratiga o‘zlarining fikrlarini keltirib o‘tishgan. Professor R.A.Mo‘minov va Professor Z.Qurbanovlar ham bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishgan bo‘lib, “Soliq nazorati samaradorligini oshirish masalalari”<sup>8</sup> nomli maqolalarida soliq nazoratida kameral nazoratni tashkil etilishi va soliq qonunchiliginiz izchil bajarilishi ta‘minlab, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga asossiz aralashuvlarni oldini olish, ularning faoliyatiga yuzasidan budjet va budgetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq tushishiga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tishgan.

Bundan tashqari professor Mo‘minov Ramizulla Abdullaevich o‘zlarining “Soliq nazoratining hisob-axborot ta‘minoti va uni takomillashtirish”<sup>9</sup> nomli maqolasida Soliq nazoratini o‘tkazish uchun hisob-axborot tizimi mavjud bo‘lishi zarurligini ma’lum qilib, unda “Soliq nazoratining hisob-axborot ta‘minoti tizimi

<sup>6</sup> I.A.Mayburov. Налогообложение и налогообложение. 6-издание перевыпущено и заполнено. Москва. Единство-Дана. 2015-йил.

<sup>7</sup> Учебное пособие / N.A.Poponova, G.G.Nesterov, A.V.Terzidi. – Moskva.: Изд-во Эксмо, 2014. С. 251( 624 с.)

<sup>8</sup> Z.Qurbanov, R. Muminovlar tadqiqot olib borgan bo‘lib, “Soliq nazorati samaradorligini oshirish masalalari”.

<sup>9</sup> R.A.Muminov tadqiqot olib borgan bo‘lib, “Soliq nazoratining hisob-axborot ta‘minoti va uni takomillashtirish”.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bu - soliq to‘lovchilarning budjet va budgetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bo‘yicha majburiyatlarini to‘g‘ri va to‘liq bajarilishini ta’minlashga doir moliyaviy va soliq hisobotlari hujjatlari hamda tashqi manbalardan olingan axborotlar, ma’lumotlar, hisobotlar majmuidir.” deb ta’rif bergenligini aytishimiz mumkin.

Kameral soliq tekshiruvi soliq xizmati organi soliq to‘lovchining huzuriga bormagan holda masofadan turib soliq organlaridan boshqa joylardagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali soliq to‘lovchini nazorat qilishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan “Norma” MCHJ ekspertlar guruhining rahbari, soliq maslahatchisi Tatyana Belousova fikriga ko‘ra: Hozir soliq organlariga ko‘p yoshlar keldi, ular buxgalteriya hisobi, Soliq kodeksi va boshqa normativ huquqiy hujjatlarni yetarli darajada yaxshi bilmasliklarini, ular o‘qib-o‘rganishlari kerakligini, bunga esa vaqt kerakligini ta’kidlagan. Boshqa muammo - soliq solishning soddalashtirilgan tizimida ishlagan buxgalterlar bo‘lib, ular ko‘p yil o‘zlarini yaxshi mutaxassis deb bilganlar, biroq bugun hammasi o‘zgarib ketdi, ular sarosimaga tushib qoldilar, o‘ziga ishonch yetishmayapti, sababi umumbelgilangan soliq solish bo‘yicha bazaviy bilimlari va ishlash ko‘nikmalari yo‘qligi shuningdek, boshqa jiddiy muammo - soliq, statistika, moliyaviy hisobotning turli shakllarini, shuningdek bank, notarius, bojxona va boshqa tashkilotlardan kelib tushadigan tashqi axborotni tekshirish (solishtirish) chog‘ida mantiqiy xatolarning avtomatlashtirilgan nazorati doim ham to‘g‘ri olib borilmasligida deb bilaman.

“Kameral” tushunchasi turli manbalarda turli ma’nolarda uchraydi. xususan, kameral so‘zi lotincha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, uy (ofis) yoki uy (ofis) sharoitida degan ma’noni anglatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ofis nazorati nafaqat o‘rganilayotgan obyektda, balki bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda soliq organining ish joylarida amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kameral soliq tekshiruvi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlarini chuqur o‘rgangan holda bu yo‘nalishda bildirilgan fikrlardan va amaliy tavsiyalardan kameral soliq tekshiruvi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni yechimini topishda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

foydanish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
2. Qirg‘iziston Respublikasining B.Osmonov nomidagi Jalol-Obod Davlat Universiteti o‘qituvchilari N.K.Musakulov va P.M.Abdukadirov larning “Soliq va soliq solish” o‘quv metodik qo‘llanmasi.
3. Kofler L.I., Kashirina Yu.P. “Налоговые проверки: виды, порядок проведения и оформления результатов. Территория науки. 2017. №1.
4. Anthony B.Kim, James M.Roberts, Terry Miller 2020 index of Economic Freedom. The Heritage Foundation. 2020 by The Heritage Foundation 214 Massachusetts Ave., NE Washington, DC 20002 (202) 546-4400| heritage.org. United States of America. ISBN: 978-0-89195-300-5.
5. Usanov A., Jalilov R. Пути совершенствования налогового мониторинга в условиях мирового финансово-экономического кризиса. A.Usanov va R.Djalilovlar tomonidan o'tkazilgan “O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida Kameral nazoratning tutgan o'rni” M.: Ekonomika i finansi. 2010 №4 (172). Abdullaev E., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. - T.: Mehnat, 2010 yil 349 bet.; Abdullaev E., Yuldashev Sh. Maliy biznesi predprinimatelstvo. - T.: Iqtisod-moliya, 208-339 bet.; Bakieva I.A. O'zbekiston engil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Dissertasiya... iqt. fan. nomzodi. - T., 2012 y.; G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: Sharq, 2002.-183b.; Baeva Sh.x. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Monografiyasi. - T.: IQTISODIYOT, 2015.-120b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. - Toshkent: Moliya, 2016 yil. 208 b.; xodiev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Dissertasiya...iqt. fan.doktori. - T.: TDIU. 2000 yil 338 bet.; Yaxshiboev G.K. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash masalalari. Nomz.diss. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Akademiyasi, 2005.; Yuldashev R. Kichik sanoat zonalari iqtisodiy taraqqiyot va xalq turmush farovonligining muhim vositasidir. “xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №4, 2017 y. avgust.; Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyat. Monografiya.-T.:Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. -160 b. // Monografiya - Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. - T.: Iqtisodiyot, 2020.

6. I.A.Mayburov. Налогообложение и налогообложение. 6-издание перевыпущено и заполнено. Москва. Единство-Дана. 2015-yil.
7. Учебное пособие / N.A.Poponova, G.G.Nesterov, A.V.Terzidi. – Moskva.: Изд-во Эксмо, 2014. С. 251( 624 с.)
8. Z.Qurbonov, R. Muminovlar tadqiqot olib borgan bo'lib, “Soliq nazorati samaradorligini oshirish masalalari”
9. R.A.Muminov tadqiqot olib borgan bo'lib, “Soliq nazoratining hisob-axborot ta'minoti va uni takomillashtirish”.